

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TIL VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“UMUMIY PEDAGOGIKA”
fanning ishchi o‘quv dasturi

Bilim sohasi:	100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110100 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi	601111400 – O‘zbek tili va adabiyoti (sirtqi ta’lim)

Fan/modul kodi	Fan/modul turi	Ta'lim tili					Ishlab chiqilgan o'quv yili	
302UP_24	ma'naviy	o'zbek					2023/2024	
Semestr	Har bir semestrdaagi fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari				Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
			O'quv mashg'ulotlari (soat)	ma'ruza	seminar	amaliy		
3	pedagogika	4	4	60	8	16	0	96
	Jami:	4	4	60	8	16	0	120

1.FANNING MAZMUNI

"Fanning mazmuni" o'quv fanining maqsadi va uning asosiy vazifalari tegishli yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog'langan holda bayon etiladi;

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan "Umumiy pedagogika" fani ishchi dasturi Davlat ta'lim standardi va nomanaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan. "Umumiy pedagogika" fani ishchi dasturi pedagogikaning uch mustaqil sohalarini o'zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat.

"Pedagogika nazariyasi" kursi pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Pedagogika tarixi" kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish orqali yangi, istiqbolida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko'rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarda tarbiya, ta'lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o'zida aks ettiradi.

"Pedagogik mahorat" kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta'lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o'qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining kommunikativ qobiliyati, mulohaza psixologiyasi va mulohaza madaniyati, pedagogik mulohaza, pedagogik takti va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallashi yo'llari, muqaddim madaniyat, o'qituvchining o'quv jarayonidagi mahorati, o'qituvchining tarbiyaviylik mahorati kabi masalalar o'rganiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni 5 ta muhim tashabbus

talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rnatish.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti, pedagogik mahoratning ilmiy asoslari, pedagogik madaniyat va texnikaning mohiyati, o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar; ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, yosh davrlarining o'ziga xosliklari, yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish, tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari; pedagogik menajmentning mohiyati va o'ziga xosliklari; pedagogik terminologiyani bilish;

- milliy g'oya va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazish; ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llash; ta'lim va tarbiya metodlari, vositalarini amaliyotda qo'llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlash; o'quv va tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasini samarali boshqarish; o'quvchilar xulqi va faoliyatini rag'batlash; pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish, aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish, jahon mamlakatlari ta'lim tizimi rivojiga doir ma'lumotlarni tahlil etish va tizimlashtirish, o'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlash, mulohaza moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga;

- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish; samarali pedagogik tadqiqotlar o'tkazish; pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish; tarbiyaviy ishni rejalashtirish va amalga oshirish; guruh jamoasining psixologik muhitini va auditoriya bilan munosabatlarda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish, istiqbolidagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish, pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo'lmagan yondashuvlarni izlab topish malakalariga ega bo'lish kerak.

3.O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Taqdim etilayotgan "Umumiy pedagogika" fanining ilmiy-nazariy va amaliy masalalari, umumiy pedagogika fanni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari metodlari ularni qo'llab umumiy pedagogika fanini o'qitishni tashkil qilish bilan bog'liq muammolar haqida ma'lumot beradi.

Fanning maqsadi - bakalavr darajasidagi talabalarga umumiy pedagogika fanni o'qitish metodikasi ilmiy-nazariy masalalari, metodlari va ularni qo'llash, o'qitishni tashkil qilish bo'yicha atroficha bilim berish, shu bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi metodik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Fanning vazifasi nazariy va amaliy masalalari, metodlari bo'yicha bilimlarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu fan talabalarni nazariy amaliy jihatdan etuk mutaxassis bo'lishlariga xizmat qiladi. Talabalarining o'zlashtirish darajasini baholash metodikasi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalgah oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- umumiy pedagogika fanini o'qitish va ta'lim texnologiyalarini tarkibiy qismlarini,
- nazariy masalalarini, metodlarini, ularni amalda qo'llashni bilishi kerak.
- muayyan nazariy va amaliy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatlarda bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak.

- qo'llagan metodlarini ilmiy asoslab berish va ularni amalda qo'llay bilish malakalariga ega bo'lish kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va ustubiy jihatdan uzviyligi. Umumiy pedagogika fanini o'qitishda talabalarining o'zbek, rus tili, falsafa, mantiq, psixologiya, tarix fanlaridan egallagan bilimlariga asoslanadi. Umumiy pedagogika fanini o'qituvchiga metodika sohasi bo'yicha bilimlarni berishga mo'ljallangan uning negizida lingvistik, psixologiya, didaktika fanlari yotadi. Ular doimo o'zaro aloqada bo'ladi. Bu aloqa uni rivojlantiradi, boyitadi, kengaytiradi. Ushbu fan bakalavriyatning «2-kursida «Psixologiya» fanlar bilan parallel ravishda o'qitiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. Umumiy pedagogika fanini bo'lg'ajak o'qituvchilarini tayyorlashning ajralmas qismidir. Umumiy pedagogika fanini kasbiy fan hisoblanadi. Bakalavriyat talabalarini o'ra-umumta'lim maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda chet til o'qituvchisi bo'lib ishlashni ko'zda tutadi. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari fani chet til o'qituvchisini tayyorlashda asosiy zamonaviy bo'lg'in hisoblanadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Talabalarining umumiy pedagogika fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi pedagogika va pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va ustubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnologiyalar majmua, pedagogik materiallar, virtual standartlardan foydalaniladi.

Ma'ruza va seminar darslarda mos ravishdagi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Chet til o'qituvchisining professional salohiyatini shakllantirish uchun ta'lim jarayonini individuallashtirish va o'zaro farqlashga, tafakkur faoliyatini jadallashtirishga hamda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga, o'quvchilarning professional refleksiyasiga yo'naltirilgan quyidagi zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalaniladi:

- ijodiy topshiriqlarni yechish texnologiyalari;
- mukammal salohiyatli yondashuv;
- pedagogik yondashuv;
- shaxsiy yo'naltirilgan yondashuv;
- kommunikativ-faoliyatli yondashuv;
- interaktiv yondashuv;
- muammoli ta'lim;
- modulli ta'lim;

4. TALABALAR KREDITLARINI OLISH TARTIBI.

Baholash usullari	Og'zaki so'rov, <i>test</i> (ochiq va yopiq) taqdimotlar, yozma topshiriqlar
Fan bo'yicha talabalar bilimlari nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari (ilovada) Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol-javob, taqdimotlar ko'rinishida o'tkazilishi mumkin

1. Nazorat amalga oshirish tartibi:

Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular bo'yicha *og'zaki* yoki *yozmashaklida* o'tkaziladi. **Yakuniy nazorat:** Fan bo'yicha semester davomida o'tilgan mavzular bo'yicha *og'zaki* yoki *test*(ochiq va yopiq) shaklida o'tkaziladi.

2. Talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentyabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

5 (a'lo) ball olish uchun talaba nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaga ijodiy yondashib, uning mohiyatini tushunib mustaqil ravishda mushohada yuritib olishi, uni yechish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi shart.

4(yaxshi) ball olish uchun talaba nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunib, uni yechish usullarini bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi shart.

3(qoniqarli) ball olish uchun talaba qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunib, uni yechish usullarini bilishi shart.

0(qoniqarsiz) ball talabaga fan bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmastligi va fanni o'zlashtirmaganligi uchun qo'yiladi.

3. Nazorat o'tkazish muddatlari:

1 va **2-oraliq** hamda yakuniy nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkili etiladi.

Izoh: Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida katedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

4. Yakuniy va oraliq baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

Fan bo'yicha talabaning semester davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baholik tizimida butun sonlar bilan baholanadi.

Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular bo'yicha *og'zaki* yoki *yozmashaklida* o'tkaziladi.

Oraliq nazorat: 3 tadan og'zaki yoki yozmashaklida nazariy savolni o'z ichiga olgan variantlar asosida o'tkaziladi. Har bir to'g'ri javob uchun baho 2-5 "a1o". Umumiy baho har bir savolga qo'yilgan bahoning o'rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho - 5 "a1o".

Yakuniy nazorat: Fan bo'yicha semester davomida o'tilgan mavzular bo'yicha *og'zaki* yoki *test* (ochiq va yopiq) shaklida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Ma'ruza mavzulari asosida variantlar bo'yicha 3 tadan og'zaki shaklida nazariy savol beriladi yoki 30 ta test beriladi. Har bir to'g'ri javob uchun baho 2-5 "a1o". Umumiy baho har bir savolga qo'yilgan bahoning o'rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho - 5 "a1o".

4. Baholash tartibi va mezonlari:

U/r	Kurs	Semestr	Maksima lball	Fan soati	Mustaqil ta'lim	ON	YN	Maksimal baho	Minimal (saratlash) baho
1.	2	3	5	24/96	96	5	5	5	3

“Tabalar kreditlarni olish tartibi” kredit-modul tizimida fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o'rnatilgan tartibda belgilanadi:

Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari

Izoh: Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi. Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

1.Ma'ruza mashg'ulotlari

“Ma'ruza mashg'ulotlari” o'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta'lim oluvchilarga davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi.

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsif (kavit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul) mavzusi .Pedagogikaning umumiy asoslari .			
1	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik metodologiya va metodlari. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. Ta'lim jarayonining tamoiilari.	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish: "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning turgan o'imi. Obekt, Pradmet, maqsad, vazifa, metodologik asoslar, kategoriya, ta'lim Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari. Didaktika, ta'lim, tamoil, bilim, ko'nikma, malaka, tizim,	2
2-bob (modul) mavzusi .Ta'lim metodlari,tashkiliy shakllari va texnologiyalari.			

2	Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari, metod va vositalari. O'quvchilarni bilim ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Xalqaro baholash dasturlari	Ta'limni tashkil etish shakllari va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'quvchining darsga tayyorlanishi. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funktsiyalari. Dars, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya, metod, usul, qoida, og'zaki, subbat, ko'rgazmali, amaliy, muammoli ta'lim O'quvchilarni bilim ko'nikma va malakalarini	2
---	--	--	---

3-bob (modul) mavzusi . Tarbiya nazariyasi va amaliyoti .		Tarbiya metodlari tasnifi. Jijimiy ongini shakllantirish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. O'quvchilarning ekologik, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya, jamoa, Obekt, namuna, rag'batlantirish, ishonirish, subbat, hikoya, jazolash.O'quvchilar jamoasi,	2
3	Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Jamoa tarbiya obekti va subekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari. O'quvchilarning fuqarolik, ma'naviy-axloqiy aqliy, mehnat, jismoniy va estetik ekologik tarbiyasi. Ta'lim muassasasi menejmenti.	O'quvchilarning ekologik, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Iqtisodiy tarbiya – o'quvchilarning ilmiy dunyogorashini shakllantirishning tarkibiy qismini sifatida Dunyogorash, e'tiqod, inson huquqlari, erkinliklari majburiyatlari, vatandparvarlik, baynalminallik, huquq, ong, ekologiya, atrof-muhit, boshqaruv,	2
4-bob (modul) mavzusi Pedagogika tarixi .			

<p>4</p> <p>Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan 1917 yilgacha O'zbek pedagogikasi tarixi. 1917-1991 yillarda va mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.</p> <p>Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari. Kommunikativ makalalar va ta'sir etish. Pedagogik texnika haqida tushuncha</p>	<p>"Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Turkistonda jadicchiлик harakati. 1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.</p> <p>Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. Nutq haqida tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: natas olish, tovush, diktsiya, ritmika. Leksik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari.</p>	<p>2</p> <p>8</p>
<p>Jami:</p>		<p>8</p>

2. Seminar mashg'ulotlar

"Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar" o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga, seminar mashg'ulotlarining mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'qitish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhkama etiladigan mavzular, masalalar, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi:

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsif (Kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul) mavzusi. Pedagogikaning umumiy asoslari.			
1	Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.	Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.	2
2	Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.	Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. "Qonun", "qonuniyat" va "tamoyil" tushunchalari. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlari. Ta'limning mazmuni va tashkiliy-metodik tamoyillari.	2
2-bob (modul) mavzusi. Ta'lim metodlari, tashkiliy shakllari va texnologiyalari.			
3	O'qitish metodi va vositalari.	Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab	2

	<p>olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari.</p> <p>"Metod", "ta'lim metodi", "usuli", "qoida" tushunchalari. Ta'lim metodlari tasnifi. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim vositalari.</p>	
4	<p>Dars – ta'limni tashkiliy etishning asosiy shakli.</p> <p>Dars va unga qo'yiladigan talablar. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar.</p>	2
3-bob (modul) mavzusi. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti.		
5	<p>Jamoani shaxs tarbiyasiga ta'siri. Tarbiya metodlari Iqtisodiy va ekologik tarbiya</p> <p>Shaxs ongini shakllantirish metodlari. Shaxs xulq-atvori va faoliyatini tashkiliy etish metodlari. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.</p> <p>Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda uni amalga oshirish yo'llari. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda uni amalga oshirish yo'llari. "Iqtisodiy barqarorlik – jamiyat rivojining asosi" mavzusida tarbiyaviy soat ishlanmasi. "Ekologiya hatfalg'i" ish rejasi.</p>	2
6	<p>Ma'naviy axloqiy tarbiya. Oila tarbiyasi. Ta'lim muassasasida metodik ishlarini boshqarish.</p> <p>Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati. Sharh mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir g'oyalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkiliy etishga doir amaliy topshiriqlar. Oila, uning vazifalari va turlari. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllari. Pedagogik Kengashi, Metodika Kengashi va metod birlashmalari. Pedagogik Kengashi, Metodika Kengashi va metod birlashmalarining faoliyatini tashkiliy etishga doir amaliy topshiriqlar.</p>	2

4-bob (modul) mavzusi Pedagogika tarixi

<p>Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari. Abu Nasr Forobiyning pedagogik g'oyalari.</p>	<p>Xalq pedagogikasi mazmuni va tarbiya metodlari tizimi. O'rxun-Enasro obidalarining tarbiyaviy ahamiyati. "Avesto" da ta'limiy-axloqiy masalalar. Forobiyning hayoti va ijodi. Forobiy fanlar tasnifi haqida. Forobiy aqliy tarbiya haqida. Forobiyning komil insonni shakllantirishga oid qarashlari.</p>	2
<p>Kommunikativ g'ohiyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish</p>	<p>Asosiy kommunikativ malakalar. Ishontirish kommunikativ ta'sir etish usuli sifatida. Ishontirishning og'zaki ta'sir etish turlari. Ko'ndirishning og'zaki ta'sir etish turlari.</p>	2

8	Nuqj texnikasi va madaniyati Pedagogik texnika	Nuqj madaniyati haqida tushuncha, uning asosiy elementlari. Nuqj texnikasi nafas olish tovush, dikecyaritmika Pedagogik texnikaning asosiy tarkibiy qismlari. O'zining xulq-atvorini boshqarish texnikasi.	2
Jami:			16

3. Mustaqil ta'lim ishlari

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- fanining ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- mavzular yuzasidan ilmiy maqolalar yozish;
- uy vazifalarini bajarish va h.k.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari	Seminar	Pedagogika jifimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.	2
2	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va jifimoiylashuvi	Amaliy	Shaxs tushunchasi. Shaxs rivojlanishi. Shaxsni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanish yosh davrlari.	2
3	Ta'lim qonuniyatlari	Seminar	Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. "Qonun", "qonuniyat" va "tamoyil" tushunchalari. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlari. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari.	2
4	Ta'lim metodlari va vositalari	Seminar	"Metod", "ta'lim metodi", "usul", "qoida" tushunchalari. Ta'lim metodlari tasnifi. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim vositalari.	4
5	Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli	Amaliy	Dars va unga qo'yiladigan talablar. Darsning turlari va tuzilishi.	4

6	Nostandart darslar	Seminar	Nostandart dars. Improvizatsiya, fantaziya, paradoks, auktsion, To'garak, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari	2
7	Yordamchi ta'lim shakllari	Amaliy	Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. O'quvchilarni bilim, ko'nikma malaka va kompetensiyalarni baholash mezonlari.	4
8	Ta'lim olganlikni tashxis etish	Seminar	Keng ma'noda tarbiya, Tor ma'nodagi kompetensiyalarni baholash mezonlari.	4
9	Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiyaning maqsad va vazifalari	Amaliy	Tarbiya tamoyillari	2
10	Tarbiyaning umumiy metodlari	Amaliy	Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari. Shaxs ongini shakllantirish metodlari. Shaxs xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlari. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.	4
11	Qurub rahbarning sinfdan tashqarida o'tkaziladigan ish shakllari	Seminar	Umumiy birgalikdagi faoliyat. Majburiy mas'uliyati munosabatining yo'lga qo'yishi. Jamoani shakllantirish bosqichlari.	4
12	O'quvchilarning aqliy tarbiyasi.	Amaliy	Dunyogarning haqida tushuncha. O'quvchilarning ilmiy dunyogarasini shakllantirishning asosiy vositalari. Aqliy rivojlanish	2
13	Fuqarolik tarbiyasi	Seminar	Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Vatandorlik va bayramnialik tarbiyasining jifimoiy ahamiyati. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.	2
14	Mehnat tarbiyasi.	Amaliy	O'quv mehnati, jifimoiy-foydali mehnat. Ishlab chiqarish mehnati	4
15	Estetik tarbiya	Amaliy	Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiya mazmuni. Jismoniy va estetik tarbiya vositalari. Muzeysga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanna.	2
16	Ma'naviy-axloqiy tarbiya	Seminar	Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy	4

			tarbiyaga doir g'oyalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.	
17	Oila tarbiyasi asoslari	Ma'ruza	Oila, uning vazifalari va turlari. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllari.	4
18	"Avesto" da ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari.	Seminar	"Avesto" da ta'limiy-axloqiy masalalar.	4
19	Imom Al-Buxoriyning 12 pedagogik g'oyalari.	Amaliy	Hadis ilmining paydo bo'lishi.	4
20	Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning didaktik g'oyalari. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari.	Seminar	«Mirologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Soydana» va boshqalar.	4
21	Ahmad Yassaviyning pedagogik g'oyalari.	Seminar	Ahmad Yassaviy hikmatlarning axloqiy, falsafiy ilohiy asoslari.	2
22	Amir Temur o'g'illarining tarbiyaviy ahamiyati. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.	Seminar	«Temur tuzuklari» Alisher Navoiy «muruvat va saxovat «to'g'risida»	4
23	Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asarining didaktik ahamiyati. Husayin Voiz Koshfiyning axloqiy qarashlari.	Amaliy	Al-Xorazmiy bilish nazariyasi	2
24	Mulhammad Sodiq Qoshg'ariyning pedagogik qarashlari.	Seminar	«Odob as-solihin» asarida bayon etilgan botniy va zohiriy qoidalar	2
25	Anbar Otinning pedagogik fikrlari.	Amaliy	Anbar Otinning ijodida ta'lim tarbiya masalasi.	2
26	Munavvar O'ri Abdurashidxonovning pedagogik qarashlari.	Seminar	«Turon» jaddidlar jamiyatini, «Adibi avval», «Adibi soniy»	2
27	logann Genrix Pestalotstsinning pedagogik g'oyalari.	Amaliy	«Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika», «Psixologiya darsligi», «Psixologiyani pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar» «Pedagogikaga doir leksiyaalar ocherkisi»	2
28	Yan Amos Komenskiyning pedagogik g'oyalari. K.D.Ushinskiyning pedagogik g'oyalari.	Seminar	Yan Amos Komenskiy tarbiyaning maqsadi va vazifalari to'g'risida. Komenskiy tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lish to'g'risida. "Buyuk didaktika" asarida ilgari surilgan	2

29	Dars tahlili	Amaliy	Ilmiy tahlil, pedagogik tahlil, metodik tahlil	4
30	Rossiya ta'lim tizimi.	Seminar	Rossiya ta'lim tizimining tuzilishi, OO'Yulari asosiy funksiyalar, Rossiya ya «Ta'lim haqida» qonuni, Rossiya ta'limining shakllanishi,	2
31	Fransiya ta'lim tizimi.	Seminar	Fransiya ta'lim tizimining tuzilishi, OO'Yulari asosiy funksiyalar, Fransiya «Ta'lim haqida» qonuni, Fransiya ta'limining shakllanishi	2
32	AQSh, Yaponiya, Germaniya davlatlari ta'lim tizimi.	Amaliy	Ta'lim tizimining tuzilishi, AQShda OO'Yulari asosiy funksiyalar, Yaponiya «Ta'lim haqida» qonuni, Yaponiya ta'limining shakllanishi, Germaniya ta'lim tizimi bosqichlari.	4
33	O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyalar.	Amaliy	Qobiliyatning psixologik tavsifi. Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi.	4
			Jami:	96

4. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

1. B.Xodjavev. Umumiy pedagogika. T.:«Sano-standard»nashriyoti, 2017.
2. M.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Pedagogika. T.: O'zbekiston Faylasulflari Milliy jamiyati, 2010
3. K. Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1996.
4. K. Hashimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti, 2005.
5. J. Hasanboyev va boshqalar. Pedagogika. T.: «Noshir» nashriyoti, 2011.
6. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. T.: Fan va texnologiya, 2008.
7. N.S. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). I kitob. – T.: «Fan va texnologiya», 2012.
8. A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. Darslik. T.: Sharq, 2004
9. O. Asgarova va boshqalar. Pedagogika. T.: Talqin, 2008
10. Hasanboeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. Darslik. – T.: G'ulom nomidagi nashriyot-mabaa ijodiy uyi, 2004
11. M.Mutalipova, B.Xodjavev. Qiyosiy pedagogika. T.: Nizomiy nomidagi TDP, 2015.
12. A. Xolidqov Pedagogik mahorat. T.: IOTISD-MOLLIYA, 2011.

OO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

13. N. Azizxojayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006.
14. Ф. Жуманова, С. Авязова, Г. Жобоборова, У. Хучетдинов. Умный педагогика ассоциари. T.: "Ishonchi hamkor", 2020.

Аxborot manbalari:

1. www.pedagog.uz
2. www.ziyouz.uz
3. www.edu.uz
4. www.psychology.net.ru
5. www.navoiy-uni.uz

5. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023yil "___" "___" "___" dagi "___" - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

I. Aslanov  (imzo)

Tuzuvchi:
V. Satorov  (imzo)

G. Jabborova  (imzo)

"Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.

Tagirizchilar:
Raximov N. Sh  (imzo)

"Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti, p.f.n.;

Mamarajabov Sh. E  (imzo)

TDIU "Innovatsion ta'lim" kafedrasi dotsenti, p.f.n.

